


# Boshlang'ich TA'LIM



2. 2006  
FEVRAL



# Boshlang'ich TA'LIM

2  
FEVRAL  
2006 yil

*Haq yo'lida kim senga bir harf o'qutmish ranj ila,  
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz qanj ila.*  
Alisher Navoiy

## MUNDARIJA

### ILMIY-METODIK, AXLOQIY-TA'LIMIY OMMABOP JURNAL

**MUASSIS:**  
*O'zbekiston Respublikasi  
Xalq ta'limi vazirligi*

**Bosh muharrir:**  
**Zuhra SHOKIROVA**

**TAHRIR HAY'ATI:**  
**Rustam Ahlidinov,**  
**Dilshoda Dadajonova,**  
**Erkin Malikov,**  
**Jo'ra Yo'ldoshev,**  
**Safo Matchonov,**  
**Tursunoy Soliyeva.**  
(mas'ul kotib),  
**Mahfuza Zayniddinova,**  
**Xadicha Sotvoldiyeva,**  
**Nabiya Abduraxmonova.**

**JURNAL 1992 YIL  
YANVARIDAN  
CHIQA BOSHLAGAN**

*Jurnal O'zbekiston Respublikasi  
Davlat Matbuot qo'mitasida 2003  
yil qayta ro'yxatga olinib, 081  
raqamli guvohnoma berilgan*

Manzilimiz: 700083, Toshkent,  
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.  
Telefon: - 136-58-27  
Fax: - (+998-712) 132-02-90  
E-mail: talim-uz@inbox.ru

#### MILLIY MAFKURA

Milliy iftixor tuyg'usi nima?  
*O. Maxmudov.*

2

#### MA'NAVIYAT

Alisher Navoiy va nutq madaniyati  
*F. O'rinova.*

4

#### UMUMMILLIY DASTUR - AMALDA

Rag'bat muvaffaqiyatga undaydi  
*A. Sodiqov.*

6

#### METODIST BURCHAGI

Sifatli malaka - samarali hatija  
*R. Ubayxo'jayeva.*

10

#### MAKTAB, OILA, MAHALLA

Hamkorlikning muhim jihatlari  
*S. Sunnatova.*

12

#### DARSLIKLARIMIZGA BIR NAZAR

Nuqsonlardan xoli bo'ladi  
*A. Xamroyev.*

14

#### НАЦИОНАЛЬНАЯ ПРОГРАММА - В ДЕЙСТВИИ

«Здравствуй, солнечный Навруз, праздник обновления!..»  
*Л. Никитина.*

16

#### BOBUR TAVALLUDINING 523 YILLIGIGA

Shoh va shoir  
*R. Yo'ldosheva.*

18

#### MILLIY DASTUR - AMALDA

Ta'lim jarayonida bola motivatsiyasini oshirish  
*N. Rahmonqulova.*

22

#### O'QISH VA ONA TILI


«Fe'l» mavzusini o'tish  
*U. Shermatova, H. Boqiyeva.*

28

#### MATEMATIKA

Matematikadan yozma nazorat ishlari  
*M. Mirzaahmedov.*

30



## NUQSONLARDAN XOLI BO'LADI

✓ Istiqlof tufayli xalqimiz yangi tarixiy davrga qadam qo'ydi. Bu - albatta, ta'lim tizimiga, jumladan, boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitishning maqsad va vazifalariga yangicha yondashishni taqozo etadi. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» hamda Xalq ta'limi vazirligining «Yangi darsliklar avlodini yaratish to'g'risida»gi qarori va talablaridan kelib chiqib, boshlang'ich sinflar uchun mo'ljallangan yangi «Ona tili» darsliklari nashr qilindi. Ushbu darsliklar oldiga bir qator talablar qo'yildi. «Darsliklarning yangi avlodi, avvalo, unda berilgan o'quv topshiriqlari o'quvchini faol ishlashga, shuningdek, mustaqil va ijodiy fikr yuritishga o'rgatadigan shaklda tuzilmog'i zarur», deyiladi yangi darsliklar yaratish haqidagi qo'llanmada. Shuningdek, bezalishi jihatidan ham zamon talablariga javob berishi zarurligi uqtiriladi. Shu o'rinda boshlang'ich sinf o'quvchilari oldiga Davlat ta'lim standartida qo'yilgan talablarga e'tibor bersak. 1999 yilda nashrdan chiqqan boshlang'ich sinflar uchun mo'ljallangan «Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi»da o'quvchilarning zaruriy bilimlar silsilasi belgilanib, boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitishdan maqsad o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish, fonetik, leksik, grammatik bilimlarini boyitish, shuningdek, har qanday sharoitda o'z fikrini erkin bayon etishga o'rgatishdan iboratligi qayd qilingan. Jumladan, boshlang'ich sinf ona tili o'quv predmeti o'z tarkibiga ko'ra murakkab bo'lib, u ikki yarusdan iborat: uning ustki yarusini tilning fonetika, leksika, grammatikasiga old elementar nazariy bilimlar, ikkinchi yarusini esa orfoepik, grafik, orfografik, uslubiy, punktuatsion, prosodik malakalar tashkil etadi. Tildan o'rganiladigan bilimlar, hosil qilinadigan malaka bolalar nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shunday ekan,

boshlang'ich sinf ona tili darsliklari ham belgilangan maqsadlarga muvofiq bo'lishi lozim. ✓

«Amaldagi boshlang'ich sinf «Ona tili» darsliklari zamon talablariga javob beradimi?» degan savolga javob izlash maqsadida mazkur darsliklarni tahlil qilamiz. Boshlang'ich sinf «Ona tili» darsliklarini tahlil qilishda prof. A.G'ulomov va H.Ne'matovlar tomonidan ishlab chiqilgan tasnifga tayanamiz. Unga ko'ra darslikdagi mashqlar o'quvchilarni izlanishga o'rgatish jihatidan quyidagi guruhlarga ajratiladi:

1. Qayta xotirlash tipidagi mashqlar.
2. Qisman izlanuvchanlik tipidagi mashqlar.
3. Ijodiy mashqlar.

Qayd qilingan tasnifga asoslanib, 1-4 sinf «Ona tili» darsliklarida berilgan 210 ta mashqdan 121 tasi (57 foiz) qayta xotirlash mashq tipiga, 60 tasi (29 foiz) qisman izlanuvchanlik, 29 tasi (14 foiz)ni ijodiy mashqlar tashkil etadi; 2-sinf «Ona tili» darsligidagi 300 ta mashqning 204 tasi (68 foiz) qayta xotirlash, 66 tasi (22 foiz) qisman izlanuvchanlik, 30 tasi (10 foiz) ijodiy mashqlar; 3-sinf «Ona tili» darsligida berilgan 365 mashqdan 252 tasi (69 foiz) 1-tip, 81 tasi (22 foiz) 2-tip, 32 tasi (9 foiz) 3-tipga; 4-sinf «Ona tili» darsligidagi 470 mashqdan 353 tasi (75 foiz) qayta xotirlash, 93 tasi (20 foiz) qisman izlanuvchanlik, 24 tasini (5 foiz) ijodiy mashqlar tashkil qiladi. Tahlildan ko'rinadiki, boshlang'ich sinf «Ona tili» darsliklarida o'quvchini mustaqil ishlash, fikrlashga undovchi ijodiy xarakterdagi mashqlar nihoyatda oz miqdorni tashkil qiladi. Hozirgi kunda qo'llanilayotgan 2-3 sinf «Ona tili» darsliklarida berilgan mashqlarning deyarli 70-75 foizi bilimlarni qayta xotirlash tipidagi topshiriqlardan tuzilgan. Darsliklarda bunday tipdagi mashqlarning ko'plab berilishi o'quvchining mustaqil fikr yuritishi hamda faolligiga salbiy ta'sir

ko'rsatadi. Shuningdek, ushbu darsliklarda bir mavzu doirasida berilgan mashqlarning shartlari deyarli bir xilda tuzilgan. Masalan, «O'qing. Kim? va Nima? so'rog'iga javob bo'ladigan so'zlarni ajratib» yoki «O'qing. Kim? va Nima? so'rog'iga javob bo'ladigan so'zlarni ikkiga ajratib yozing» ko'rinishidagi topshiriqlarni istagancha topish mumkin. Bunday bir xilliklar o'quvchilarni quruq yodlashga, tayyor topshiriqlarni bajarishga o'rgatadi, xolos. O'quvchilar bunday ko'rinishdagi mashqlarni bajarish orqali mustaqil fikr yuritib, til hodisalarini ajratish va matn yaratish kabi malakalarga ega bo'la olmaydi. Agar 2-3- sinf «Ona tili» darsliklarida ham o'quvchini izlanish va fikrlashga undaydigan topshiriqlar ko'paytirilsa, ta'lim jarayonidagi samaradorlik yanada oshar edi. Masalan, 2-sinf «Ona tili» darsliklariga quyidagi ko'rinishdagi topshiriqlarni kiritish mumkin: Ikki ustunda so'zlar berilgan. Ularni o'zaro taqqoslab, farqlarni aytib bering.

<i>1-ustun</i>	<i>2-ustun</i>
bola	bolalar
daraxt	daraxtlar
gul	gullar

Ikkinchi ustundagi so'zlar nimasi bilan birinchi ustundagi so'zlardan farq qiladi.

O'ylang. O'zingiz yozgan so'zlarni qanday qilib ikki guruhga ajratib yozsa bo'ladi; 3-sinfda: *Kim?, qanday?, nechanchi?, nima qildi?* so'roqlarga mos so'zlar o'ylab yozing; *O'quvchi, daftar, kitob, o'qituvchi, shifokor, chizg'ich, rassom, hamshira, qalam, kundalik.* Ushbu so'zlarni qanday qilib ikki guruhga ajratib yozsa bo'ladi va hk. Darsliklarda bunday ko'rinishdagi topshiriqlarning berilishi o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshirishga yordam beradi.

Qayta xotirlash va ijodiy xarakterdagi topshiriqlar ilmiy-uslubiy adabiyotlarda 50 foiz bo'lishi qayd etiladi. Darsliklarda topshiriqlarning bunday nisbatda bo'lishi ta'lim jarayoni samaradorligining yuqori bo'lishiga yordam beradi.

Keyingi yillarda davlatimiz tomonidan darsliklar bo'yicha bir qator tanlovlar e'lon qilindi. Mana shu tanlov

natijasiga ko'ra, 4-sinf uchun darslik sifatida tasdiqlangan «Ona tili» darsligi (Mualliflar: R. Ikromova,

D. Shodmonqulova, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva) xususida mulohaza yuritadigan bo'lsak, avvalo, ushbu darslik induktiv usulda tayyorlanganligini, bezalish jihatidan rang-barang, o'quv materiallari ham, nazariy ma'lumotlar ham izchillik asosida berilganligini aytib o'tishimiz zarur. Darslik mazmun jihatidan boy bo'lib, o'quvchilarni mustaqil fikr yuritishga o'rgatadigan bir qancha ijodiy xarakterdagi mashqlar bilan boyitilgan. Masalan, gap qurilishiga doir turli chizmalar, o'quvchining tafakkurini rivojlantiruvchi algoritm shaklidagi topshiriqlar, turli rasmlar asosida matn yaratish xarakteridagi mashqlarni ko'plab kuzatish mumkin. Shuningdek, darslik o'quvchinalillardan xulosa chiqarishga mo'ljallanganligi bilan oldingi nashrlaridan farq qiladi. Nazariy ma'lumotlarning berilishi usulida ham talay o'zgarishlar ko'zga tashlanadi. Masalan, ilgari qo'llangan darslikda uyushiq bo'laklar o'quvchilarga o'quv yilining oxirida o'rgatilgan bo'lsa, mazkur darslikda o'quv yilining I-II choragida o'qitilishga mo'ljallanganligi alohida ahamiyat kasb etadi. Darslikda uyushiq bo'laklarning bunday usulda berilishi o'quvchida uyushiq bo'laklarni nutqda qo'llay olish malakasining oldinroq hosil bo'lishiga yordam beradi. Bu esa o'quvchining gap tuzish, matn yaratish jarayonidagi faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi uyushiq bo'laklarni amaliyotda ishlatish qoidalarini bilsagina undan nutqda to'g'ri foydalana oladi. Mazkur darslikda berilgan har bir o'quv materiali yoki qoida dalillardan xulosaga qarab borish tamoyili asosida qurilgan. Bunday usulda darslik tuzish o'quvchilarni dalillarni to'plash, to'plangan dalillardan xulosa chiqarish, chiqargan xulosani turli o'quv holatlariga tatbiq qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ijodiy xarakterdagi mashqlar ustida ishlash o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish bilan birga mantiqiy fikrlash va o'z fikrini erkin bayon etishga odatlantiradi. Bu kabi ijobiy o'zgarishlarni darslikda ko'plab uchratish mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri - bu yoshdagi bolalarda ko'rgazmalilikka bo'lgan qiziqish yuqori darajada taraqqiy etganligi bilan ajralib turadi. Ular ko'proq o'zlari ko'rgan, bilgan, eshitgan, tasavvur qilgan narsa va voqea-hodisalar haqida keng ma'lumot bera oladi. Ammo mavhum tushuncha va narsalar haqida fikr yuritganda bir oz bo'lsa-da, qiynalishi seziladi. Masalan, «Ona tili» darsliklaridan o'rin olgan mashqlarda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tushunish qiyin bo'lgan so'zlar ham talaygina uchraydi: *so'roq ananas, tasanno* (1-sinf); *farovon, majmua, menejer* (2-sinf) va h.k. Mashqlarda berilgan so'zlar bilan birgalikda mashq uchun tanlanadigan matnlarga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Mashq uchun tanlangan matnlar qanchalik rang-barang bo'lsa, o'quvchilar dunyoviy bilimlar va tushunchalarga shunchalik boy bo'ladi. Bundan tashqari, boshlang'ich sinf darsliklarida milliy qadriyatlarimiz va urf-odatlarimiz bilan bog'liq bo'lgan matnlarga ko'proq e'tibor berilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Shuningdek, boshlang'ich sinf «Ona tili» darsliklarini tuzuvchi mualliflar ko'proq biluv topshiriqlaridan foydalanib, darsliklarni tuzishsa, ta'lim jarayonining samaradorligi va sifati, o'quvchilarning faolligi oshadi. Metodik adabiyotlarda biluv topshiriqlarining to'rt turi tavsiflanadi:

1. O'rganilayotgan mavzuga oid hodisani ajratish va kuzatish.
2. O'rganilgan bilimni yangi o'quv holatiga tatbiq qilish.
3. Ikki yoki undan ortiq mavzu doirasida til hodisalarini taqqoslash.
4. O'zi va o'zgalari bilimiga munosabat bildirish.

Biluv topshiriqlari o'quvchilar tafakkurini o'stirish hamda ijodiy layoqatlarini tarbiyalashning samarador va yetakchi vositasi sanaladi. Darhaqiqat, shunday ekan, yangi darsliklar avlodini yaratishda ushbu tamoyillarga amal qilinsa, kelajakda yaratiladigan darsliklarning yangi avlodi nuqsonlardan xoli bo'ladi degan umiddamiz.

**Alijon HAMROYEV,**  
Buxoro Davlat universiteti  
o'qituvchisi.